ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Abdumajidova Shohida Abdurasulovna

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IMLO MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida imlo malakalarini shakllantirishning nazariy asoslari va samarali usullari yoritiladi. Alifbo davridan boshlab to‘g‘ri yozuv ko‘nikmalarini rivojlantiris hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, imlo ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi va savodxonligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: imlo, savodxonlik, boshlang‘ich ta’lim, alifbo, nutq, orfografiya, metod, ko‘nikma, o‘quvchi.

Annotation

This article discusses the theoretical foundations and effective methods of developing spelling skills in primary school students. It reveals the importance of developing correct writing skills from the alphabet learning stage and using modern pedagogical technologies. In addition, the ways of improving students’ independent thinking, speech activity, and literacy during the process of working on spelling are also described.

Keywords: spelling, literacy, primary education, alphabet, speech, orthography, method, skill, student.

Boshlang‘ich sinflarda savodxonlikni rivojlantirish ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir. O‘quvchilarda to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun, avvalo, imlo qoidalarini puxta o‘rgatish zarur. Shu maqsadda 1995-yil 24-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 339-sonli “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi qaror qabul qilingan. Mazkur hujjat o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini belgilab berdi va hozirgi kungacha ta’lim jarayonida asosiy me’yoriy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining savodxonlik poydevori yaratiladigan eng muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘qish va yozish malakalari shakllanib, keyingi ta’lim jarayoni uchun mustahkam asos yaratiladi. Imlo malakalarini to‘g‘ri shakllantirish o‘quvchining yozma nutqini ravon, mantiqli va savodli bayon etishiga xizmat qiladi. Imlo ustida izchil va tizimli ishlash nafaqat to‘g‘ri yozishni, balki tafakkur, diqqat, xotira va nutqni rivojlantirishni ham ta’minlaydi. Shu bois boshlang‘ich sinflarda imlo o‘rgatish metodikasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy o‘quvchilarning orfografikko‘nikmalari ustida ishlashdan oldin ularning grammatik bilimlarni o‘zlashtirgan bo‘lishlari lozimligini alohida ta’kidlab ko‘rsatgan. O‘quvchilar grammatik tushunchalar va bilimlar bilan tanishgach, orfografik qoidalarni o‘zlashtiradilar. SHundan so‘ng orfografik mashqlar ustida tizimli tarzda tahliliy ishlar olib boriladi. K.D.Ushinskiy sistematik mashq tushunchasiga alohida diqqat qaratib shunday yozadi: ”Muvaffaqiyatning eng birinchi va bosh asosi sistematik mashq, muvaffaqiyatsizlikning bosh sababi sistematik mashqdagi nuqsonlardir. Bu uzoq vaqt ko‘plab

tashkil qilingan mashqlarning samarasiz natijasiga sabab bo‘ladi”. Gulyamova X. tadqiqotlarida qayd etilishicha, imlo ko‘nikmalarini shakllantirishda shunchaki yozish emas, balki "tanlab yozish", "tushuntirib yozish" va "ijodiy diktant" turlari o‘quvchilarda husnixat va imlo qoidalarini mustahkamlashda yuqori natija beradi. Psixolog olim L.S. Vygotskiy ta’lim jarayonida o‘quvchining faol ishtiroki va tafakkur rivojlanishiga e’tibor qaratadi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi mustaqil bajara olmaydigan vazifani o‘qituvchi ko‘magida bajarish orqali yangi bilim va ko‘nikmalarni egallaydi. Bu fikr imlo o‘rgatishda ham muhim: dastlab izohli, tushuntirib yozish mashqlari orqali o‘qituvchi yordam beradi, keyinchalik esa o‘quvchi mustaqil yozishga o‘tadi. Boshlang‘ich sinflarda imlo malakasini shakllantirish jarayoni faqat qoidani yodlash bilan cheklanmasligi kerak. O‘quvchi har bir yozgan so‘zining ma’nosini, tuzilishini va qo‘llanilish sababini tushunishi zarur. Shu bois tizimli mashqlarni interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirish eng samarali yo‘l hisoblanadi. Bundan tashqari, dars jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish, xatolarni tanqid emas, balki tahlil asosida tuzatish o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Imlo ustida muntazam va ongli ishlash natijasida o‘quvchilarda savodxonlik, mustaqil fikrlash va ravon yozma nutq ko‘nikmalari shakllanadi.

Boshlang‘ich sinflarda imlo malakalarini shakllantirish jarayonida turli pedagoglarning ilmiy qarashlari va metodik tavsiyalarini uyg‘un holda qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv natijasida o‘quv jarayoni faqat texnik o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, o‘quvchilarda to‘g‘ri yozish qoidalarini anglash, mustaqil fikrlash, nutqiy faoliyatni rivojlantirish, savollarga mantiqan javob bera olish hamda ijodiy yondashuv kabi muhim ko‘nikmalar ham rivojlanadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida imlo malakalarini shakllantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik holati va bilim darajasi alohida hisobga olinishi zarur.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda imlo malakalarini samarali shakllantirish o‘qitish jarayonining muhim shartlaridan biridir. Bu jarayonda dars mazmunini to‘g‘ri tanlash, imlo qoidalarini izchil va tushunarli tarzda tushuntirish, o‘quvchilarning yosh hamda psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, individual yondashuvni qo‘llash va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning imlo qoidalarini ongli ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda imlo malakalarini shakllantirish ta’lim jarayonining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. O‘quvchilarda to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun dars jarayonida samarali metod va usullardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Xususan, tushuntirib yozish, tanlab yozish, ijodiy diktant, lug‘at ustida ishlash hamda didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning imlo qoidalarini ongli ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, imlo malakalarini shakllantirish jarayonida o‘qituvchining pedagogik mahorati, darsni to‘g‘ri tashkil etishi va o‘quvchilarning yosh hamda psixologik xususiyatlarini hisobga olishi muhim omil hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, nutqiy faoliyatni rivojlantirish va savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Natijada, boshlang‘ich sinflarda imlo malakalarini samarali shakllantirish o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish, savodxonligini oshirish hamda keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.08.1995 yildagi 339-son

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

2.Karima Qosimova |, Safo Matchonov,Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo'ldosheva,Sharofjon Sariyev "ONA TILI O'QITISH METODIKASI" -Toshkent: Bayoz 2022. 47 bet

3.Qosimova D. "Boshlang‘ich sinfda imlo va savod o‘rgatish metodikasi." Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

4.ziyonet.uz